

O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON O'RTASIDAGI IJTIMOIIY- IQTISODIY ALOQALAR

Po'latqo'ziyev Sherzodbek Qodirjon o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti 303-guruh talabasi)

Abdullayev Begzodbek Xusniddin o'g'li

(Andijon davlat universiteti tarix fakulteti o'qituvchisi)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishi, ikki davlat o'rtasida tuzilgan shartnomalar, iqtisodiy, siyosiy, diplomatik aloqalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Chorjo'y, S.Niyozov, Turkmanobod-Farob, Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhammedov, savdo-iqtisodiyot, neft-kimyo, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo'jaligi, madaniyat, turizm.

Abstract: This article describes the establishment of diplomatic relations between the countries of Uzbekistan and Turkmenistan, the agreements concluded between the two countries, economic, political and diplomatic relations.

Key words: Chorjoi, S. Niyazov, Turkmanabad-Farob, Shavkat Mirziyoyev and Gurbanguly Berdimuhamedov, trade-economy, petrochemical, transport communications, agriculture, culture, tourism.

1991-yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolangan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1996-yil yanvarda amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjo'y shahrida S.Niyozov bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha qator bitimlarni imzolashdi. 1991-yildan 2016-yilga qadar ikki mamlakat rahbarlarining 11 marta oliy darajadagi tashriflari amalga oshirildi. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi keng ko'lamlil hamkorlikka oid dolzarb yo'nalishlarni qamrab olgan davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo darajada imzolangan 150 dan ortiq xalqaro shartnomalar ikki mamlakat munosabatlarining mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Yurtimizda 2001-yilda tashkil etilgan Respublika turkman madaniyat markazi faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston hududida turkman millatiga mansub qariyb 170 ming aholi yashab, 44 ta maktabda turkman tilida ta'lim olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi

strategik hamkorlikning huquqiy asosi sifatida qator tarixiy hujjatlar imzolandi. Do'stona munosabatlarni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro yordamni ayamaslik mazmunidagi 1996-yil 16-yanvar, 2004-yil 19-noyabr va 2007-yil 18-oktyabrdagi kelishuv hujjatlari – shartnomalar shular jumlasidan. Bundan tashqari, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning 2014-yil may oyida mamlakatimizga rasmiy tashrifi chog'ida O'zbekiston–Turkmaniston hamkorligini yanada rivojlantirish masalasida qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 6–7 mart kunlari Turkmanistonga ilk davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik sohasida tub burilish yasadi. Tashrifning asosiy tadbirlari 6 mart kuni bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari avval yakkama-yakka, keyin ikki mamlakatning kengaytirilgan tarkibdagi rasmiy delegatsiyalari ishtirokida muzokara o'tkazdilar. Muzokaralarda savdo-iqtisodiyot, neft-kimyoy, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo'jaligi, madaniyat, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Qo'shma bayonotni, ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzolashdi. Ikki mamlakat vazirlik va idoralari o'rtasida iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va kimyo sanoati, temir yo'l transporti, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni, hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolandi. Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmanobod shahriga borishdi. Bu shahar yaqinida Amudaryoda qurilgan Turkmanobod-Farob avtomobil va temir yo'l ko'priklarining tantanali ochilish marosimi bo'ldi. Avtomobil ko'prigining uzunligi - 1600, temir yo'l ko'prigining uzunligi - 1750 metr. Ularni qurishda turkmanistonlik va ukrainalik quruvchilar ishtirok etgan, Germaniya, Norvegiya texnologiyalaridan foydalanilgan. Prezidentlar ko'priklar oldidagi maydonda tashkil etilgan o'zbek va turkman amaliy san'ati namunalari, hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirdilar. O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov bilan vidolashuv marosimida Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmanistonda Islom Karimov xotirasi abadiylashtirilishini ta'kidlagan edi. Shu maqsadda Turkmanobod shahridagi markaziy ko'chalardan biriga Islom Karimov nomi berildi. Ushbu ko'chada yodgorlik majmuasi barpo etildi va Islom Karimovning byusti o'rnatildi. Majmuada O'zbekiston va Turkmaniston davlat bayroqlari aks ettirilgan. Ularning yonidagi granitda Islom Karimovning “Biz qadrlashimiz va yuksaltirishimiz zarur bo'lgan muhim boylik – bu mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro ishonchdir” degan so'zlari o'zbek va turkman tillarida bitilgan. Tashrif yakuniga ko'ra, ikki davlat rahbarlari Qo'shma bayonotni, O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladi. Tegishli vazirlik va idoralar o'rtasida iqtisodiy,

transport, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturlari, O'zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo'jaligi texnikalari va kimyo mahsulotlari etkazib berish to'g'risidagi shartnomalar, Xorazm viloyati bilan Dashovuz viloyati, Buxoro viloyati bilan Lebap viloyati hokimliklari o'rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Birgina 2017-yilda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 177 million dollarni tashkil qilib, bu o'tgan davrdagiga nisbatan 3 barobar ko'p demakdir. Ushbu yil mamlakatimiz hamkorligi rivojida tarixiy yil bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Turkmanistonga uch marotaba tashrif bilan bordi. Bu mamlakatlarimizning strategik darajadagi munosabatlariga yangi sur'at baxsh etdi, erishilgan kelishuvlar amalga oshirilishiga jiddiy turtki berdi. Mazkur yilning birinchi choragida mamlakatlarimiz o'rtasidagi Tovar ayirboshlash hajmi 55 foiz o'sdi. "Oliy darajadagi bu galgi muzokaralar ushbu sur'atni yanada oshirish yo'lida jiddiy qadam bo'ladi",-dedi Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston ta'lim muassasalarida Turkmanistonning 720 nafar fuqarosi tahsil olmoqda. O'zbekiston Turkmaniston vakillari ikki mamlakatda tashkil etilayotgan turli madaniy tadbirlar, festivallar, sport musobaqalarida faol ishtirok etmoqda. O'zbekistonda turkman millatiga mansub 192 ming aholi istiqomat qilmoqda. Ularning tili, madaniyati, urf-odatlarini rivojlantirish barcha shart-sharoit yaratilgan. Mamlakatimizda turkman tilida dars beriladigan 44 ta maktab faoliyat yuritmoqda

O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 24-avgustdagi, 2019-yil 10-oktyabrdagi, 2021-yil 29-apreldagi Turkmanistonga amaliy tashriflari davomida ham O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlik va mintaqaviy sheriklikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Turkmaniston Prezidentining 2018 yil 23–24 aprel kunlari O'zbekistonga davlat tashrifi ham do'stlik munosabatlari va strategik sheriklikni rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Tashrif davomida Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuxamedovning Qo'shma bayonoti imzolandi

2020 yilning 10 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkmaniston Mejlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2018-yil 23-aprel kuni Toshkent shahrida Ashxobod sayilgohi ochildi, 2016-yil noyabrda mamlakatimizda Turkmaniston madaniyati kunlari, 2017-yil noyabrda esa Turkmanistonda O'zbekiston madaniyati kunlari o'tkazildi. Gurbanguli Berdimuxamedovning mamlakatimizga bu galgi rasmiy tashrifi yuqoridagi ustuvor maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarish barobarida, joriy yilning 6-7 avgust kunlari Turkmanistonning Avaza shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi maslahat uchrashuvida ko'tarilgan ikki qardosh xalqning

hayoti va taqdiri uchun muhim bo'lgan ustuvor masalalarni yana bir bor muhokama qilishga, asrlar mobaynida shakllanib kelgan do'stlik rishtalari mustahkamlanishiga, xalqaro siyosat maydonida yuzaga kelayotgan dolzarb masalalar yuzasidan fikrlar almashishga xizmat qilishi, shubhasiz.

2023-yil 28 - dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati ma'lumot bo'lishdi. Ushbu ma'lumotga ko'ra suhbat avvalida O'zbekiston Prezidenti va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi bir - birini yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan dildan qutlab, qardosh xalqlarga tinchlik - osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini bildirganlar. O'zbekiston Prezidenti Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga o'zining samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yo'llagan. Qayd etilishicha O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va chuqurlashgan strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilingan. Ilgari erishilgan, shu jumladan parlamentlararo muloqot doirasidagi kelishuvlar ijrosining borishi muhokama qilingan. Tomonlar barcha ustuvor yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlik sezilarli faollashganini katta mamnuniyat bilan qayd etganlar. Ifoda etilishicha O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi savdo hajmi oshar ekan, 2023 - yil yakuni bilan tovar ayirboshlash 1 milliard dollardan ortishi kutilmoqda. Poytaxt Toshkent va Ashxobod shaharlarida savdo uylari ochilib, birgalikda "Shovot - Toshovuz" chegaraoldi savdo zonasini barpo etish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T: O'qituvchi. 1994.
2. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li. T: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2007.
3. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat" to'g'risida(yangi tahriri)gi qonuni. 26.05.2000 yil1.
4. A.V.Vaxabov D.A.Tadjibayeva Sh.X.Xadjibakiyeva Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar.- T.: Baktria press, 2015.
5. B. Sayfullayev "O'zbekiston respublikasi madaniy diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi" DSc) dissertatsiyasi Avtoreferati Toshkent –2020 5-b
6. Mansurbek Nemat O'g'li To'xsanov BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA O'ZBEKISTON HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI // CARJIS. 2022. No
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va savdo savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish choratadbirlari" tog'risidagi PF-5643-sonli farmoni 28.01.2019 yil